



THE HISTORY OF THE CREATION OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS AMENDMENTS

Nodira Shomurodova

Master's student

*Oriental University
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: dictionary, code, Declaration of Independence, Draft Constitution, referendum.

Received: 12.07.24

Accepted: 14.07.24

Published: 16.07.24

Abstract: The Constitution of Uzbekistan, adopted on December 8, 1992, defines the foundations of the state system. The Constitution protects the principles of a democratic society, the rule of law, and the rights and freedoms of citizens. To date, the constitution has been amended more than 15 times, and this article analyzes these issues.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI VA KIRITILGAN O'ZGARTIRISHLAR

Nodira Shomurodova

Magistratura talabasi

*Oriental universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qomus, kodeks, Mustaqillik dekloratsiyasi, Konstitutsiya loyihasi, referendum.

Annotatsiya: O'zbekiston Konstitutsiyasi, 1992-yilning 8 dekabr kuni qabul qilingan va davlat tuzumining asoslarini aniqlaydi. Konstitutsiya, demokratik jamiyat, huquqiy davlat prinsiplarini, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qiladi. Bugungacha konstitutsiyaga 15 martadan ortiq o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, ushbu maqola ayni shu masalalarni tahlil qiladi.

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИЗМЕНЕНИЙ В НЕЕ

Нодира Шомуродова
студент магистратуры
Oriental университет
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: словарь, кодекс, Декларация независимости, проект Конституции, референдум.

Аннотация: Конституция Узбекистана, принятая 8 декабря 1992 года, определяет основы государственного устройства. Конституция защищает принципы демократического общества, верховенство закона, права и свободы граждан. На сегодняшний день в конституцию вносились поправки более 15 раз, и в данной статье анализируются эти вопросы.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi

Konstitutsiya — mamlakatning asosiy qonuni, davlatning barcha sohalarini tartibga soluvchi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi, davlat boshqaruvin tizimini aniqlaydigan asosiy hujjatdir. Konstitutsiya o‘zida davlatning qonunchilik sistemasi, huquqiy tartibi, boshqaruvin organlarining tuzilishi va faoliyati, davlat va fuqarolarning munosabatlari, davlatning iqtisodiy va madaniyati sohasidagi asosiy qarorlarni o‘z ichiga oladi. Bu hujjat davlatning ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning barcha faoliyat sohalarini tartibga soladi.

ASOSIY QISM

“Konstitutsiya” atamasi qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharaflı solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz. Mamlakat huquqiy tizimidagi barcha qonunlar poydevori sifatida Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Unda bayon etilgan tushunchalar shu qadar ahamiyatli, bu har bir fuqaroning turmush faoliyati bilan bog‘langan. Jamiatda qonunlarning o‘rni, ahamiyati va vazifasini kengaytirish, unga amal qilishni aholi turmush tarziga aylantirish fuqarolik jamiatining beqiyos afzalligidir. Bobokalonimiz Amir Temur ta’kidlaganidek “Qonun hukmron joyda erkinlik

bo‘ladi”. Darhaqiqat, insonlar belgilangan tartib-qoidalarga amal qilsa, ularning ishlariadolatli hal etiladi, jamiyatda erkinlik va sog‘lom huquqiy muhit shakllanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘z asarida: “Biz hali Konstitutsiyamiz fuqarolarga bergan huquqlarni amalga oshirish uchun ko‘p ish qilishimiz kerak”-, deb ta’kidlab o‘tgan edilar. Bu fikrlar orqali mamlakatimizdagi har bir fuqaroning huquq va muhofazasi ta’minlanganligi hamda uni yanada kuchaytirish haqida bayon qilinadi.

Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o‘zbek xonliklari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan. Bundan tashqari, bizning qiziqish va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 mamlakati tomonidan to‘plangan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olgan holda yaratilgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining paydo bo‘lishi tarixi haqida gap ketganda, suveren O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama qilish, qabul qilish va amalga oshirishning 6 ta huquqiy bosqichini qayd etish zarur. Zero, Konstitutsiya yaratilish tarixi mustaqillik uchun kurashning ajralmas qismidir. Konstitutsiya yaratilishidagi birinchi huquqiy qadam o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berilishidir.

Hech shubhasiz, bu mustaqillik tarixidagi yorqin sahifalardan biri – siyosiy va ma“naviy hayotimizdagi unutilmas voqeа bo‘ldi. 1989 yil 21 oktyabrda, qizg‘in munozaralar, musoxabalar va mushohadalardan so‘ng, va nihoyat, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. «Davlat tili to‘g‘risida» gi qonunda qayd etilgan ushbu muhim huquqiy qoida Asosiy qonunimizning 4-moddasida ham mustahkamlab qo‘ylgan.

Konstitutsiya yaratilish tarixidagi ikkinchi huquqiy bosqich, 1990 yil mart oyida O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining birinchi sessiyasida birinchi marta mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilgari surildi. Konstitutsiya yaratilishidagi uchinchi huquqiy qadam – bu «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning e’lon qilinishi bo‘ldi.

Konstitutsiya yaratilish tarixidagi ikkinchi huquqiy bosqich, 1990 yil mart oyida O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining birinchi sessiyasida birinchi marta mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi ilgari surildi. Konstitutsiya yaratilishidagi uchinchi huquqiy qadam – bu «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning e’lon qilinishi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda qabul qilingan Mustaqillik Deklaratsiyasining 8- moddasida O‘zbekiston «o‘z taraqqiyot yo‘lini, nomini

belgilab beradi va o‘z davlat ramzlarini (gerbi, bayrog‘i, madhiyasi) o‘rnatadi» degan tamoyil mustahkamlangan.

Konstitutsiya yaratish yo‘lidagi to‘rtinchi qadam – Konstitutsiyaviy komissiyani tuzilishi bo‘ldi. Oliy Kengashning 1990 yil 21 iyundagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida Konstitutsiyaviy komissiya 64 kishidan iborat, davlat arboblari, deputatlar va mutaxassislardan iborat tarkibida tashkil etildi. I.Karimov Konstitutsiyaviy komissiya ish boshlaganidan beri mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq aks ettiradigan, xalqaro andozalarga to‘la mos keladigan, jahon tajribasini, demokratiyani va eng rivojlangan mamlakatlarning konstitutsiyaviy qonunlariga erishishni inobatga olgan Konstitutsiya loyihasini tayyorlashga bevosita rahbarlik qildi. Yangi hujjatni ishlab chiqish jarayonida u BMTning asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga tayandi. Yangi Konstitutsiyaning ajralib turadigan xususiyati shundaki, o‘zbek xalqining madaniyati va milliy an’alarining qadimiy ildizlariga ham tayanadi.

Asrlar qa’riga nazar tashlab, ishlab chiquvchilar xalqningadolatli davlat, demokratiya va qonuniylik haqidagi g‘oyalarini o‘rganib, «Temur tuzuklari», «Boburnoma», «Zafarnoma» kabi tarix va madaniyat yodgorliklaridan ilhomlanib, Alisher Navoiy, Abdurazzoq Samarcandiy va boshqalarning donoligiga murojaat qildilar. Bundan tashqari, ular konstitutsiyaviy rivojlanishning dunyo tajribasini, turli mamlakatlarda qonunchilik va demokratiya yutuqlarini chuqur o‘rgandilar. Konstitutsiya yaratish yo‘lidagi beshinchi qadam, albatta, davlat mustaqilligini e“lon qilinishidir. Davlatimiz rahbarining 1991 yil 31 avgustdagi XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VI favqulodda sessiyasida so‘zlagan nutqida, xususan, shunday deyilgan edi: “Bundan buyon 1 sentyabrni milliy bayram deb e“lon qilishni taklif qilaman”. Bu so‘zlar tarixga sahifalariga oltin harflar bilan yozilgan.

Oliy Kengash qarori bilan 1990-yil 21-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a’zoni o‘zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan mamlakatimizning o‘ziga xos jihatlarini va xususiyatini munosib ravishda aks ettiradigan, xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan, jahon tajribasini, demokratiya va eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi erishgan yutuqlarni inobatga oladigan Asosiy Qonun loyihasi tayyorlandi.

Yangi Konstitutsiyaning birinchi loyihasi 1992-yil 26-sentyabr kuni tayyor bo‘ldi va shu kuni matbuotda chop etildi. Loyiha e‘lon qilingach, uning umumxalq muhokamasi juda keng tus oldi. Bu ochiq-oshkora muhokamalar 1992-yilning sentyabr oyi oxiridan dekabr oyi

boshlarigacha fuqarolarning siyosiy faolligi, ijodiy ko‘tarinkiligi ruhida o‘tdi hamda O‘zbekistonda demokratiya rivojining samarali va amaliy maktabi bo‘ldi.

Muhokamada mamlakatimiz katta yoshdagi aholisining deyarli hammasi ishtirok etdi. Fuqarolarimiz bildirgan takliflar soni 5 mingdan oshib ketdi. Konstitutsiya loyihasi o‘tkazilgan muokamalar davomida kelib tushgan takliflar asosida ancha tuzatildi va qayta ishlandi. So‘ngra, 1992-yil 21-noyabrda umumxalq muhokamasini davom ettirish uchun Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marta gazetalarda chop etildi.

Jamoatchilik muhokamasi natijasida Konstitutsiya loyihasiga 100 ga yaqin tuzatishlar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrdan XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi. Butun dunyoga xalqimizning istagi va xohish-irodasi rasman e’lon qilindi: o‘zbek davlatchiligini zamonaviy sivilizatsiya asosida qayta tiklash, tinch va osoyishta hayot kechirish, uning mustahkamlanishiga har tomonlama hissa qo‘sish, demokratiyasini chuqurlashtirish, inson huquqlari va davlat suvereniteti tamoyillariga sodiqlik, insonparvar qonun ustuvorligini shakllantirish, fuqarolikni ta“minlash kabilar unda o‘z ifodasini topdi. Shunday qilib, agar O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilingan kundan boshlab jahon sahnasida yangi suveren davlat tuzilgan bo‘lsa, birinchi Konstitutsiyamiz qabul qilingan kuni davlatimiz qayta tiklandi, haqiqiy mustaqilligimizning mustahkam huquqiy asosi yaratildi.

Bir so‘z bilan aytganda, biz milliy uyg‘onish va taraqqiyot yo‘lini dadil bosib o‘tdik va o‘tmoqdamiz. Konstitutsiyaning mohiyati uning asosiy prinsiplari tizimida namoyon bo‘ladi. Bular – davlat suvereniteti, odamlarning huquqi, fuqarolarning huquq va erkinliklari ustuvorligi va daxlsizligi prinsipi, davlat va shaxsning o‘zaro javobgarligi, qonuniylik, hokimiylarning bo‘linishi, mahalliy davlat hokimiyati, sud tizimi va adolatni ta“minlash tamoyillari.

O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi kiradi. 1991 yil dekabrdan Mustaqillik deklaratsiyasini, 1993 yil 3 martda esa o‘z Konstitutsiyasini qabul qildi. O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi ulkan ma“naviy salohiyatga ega. Konstitutsiyaviy piramidaning yuqori qismida inson, fuqaro va uning qonuniy manfaatlari joylashgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar

Keyingi yillarda Konstitutsiyada bir necha o‘zgartirishlar amalga oshirildi. Muhim o‘zgartirishlar quyidagilardir:

1) 1995-yil Konstitutsiyada birinchi o‘zgartirish amalga oshirilgan, bu o‘zgartirish bilan Prezidentning yetkilarini kengaytirish, davlat tuzumining tarkibi va boshqaruv shakli o‘zgarib, parlamentning ko‘p partiyaviy strukturaga ega bo‘lishi nazarda tutildi.

2) 2002-yil: Prezidentning davlat organlari faoliyatini tartibga solish va boshqarishida yuqori to‘qima solish imkoniyatlarini kengaytirgan.

3) 2003-yil: Senat a'zolari soni oshirildi va uyg‘unlik to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqarish tartiblanib, Prezidentning vakolatlarining chegaralanishi kuchaytirildi.

4) 2011-yil: Prezident uch yillik, bir necha marta faoliyat yuritishga imkoniyat berilgan.

5) 2003-yil o‘zgartirishlari: Bu o‘zgartirishlar orqali Prezidentning yetkilarini va hukmronligini yana qattiqlashtirib, davlat boshqaruv organlarining tuzilishi va ishga tushirilishi o‘zgardi. Ayni vaqtda, Konstitutsiyada huquqiy davlat tizimi va shaxsiy erkinliklarni ta'minlashga doir maqbul shartlar kiritildi.

6) **2021-yil** O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 2021 yilning yanvar oyida yetakchi o‘zgartirishlar kiritildi. Bu o‘zgartirishlar orqali Prezidentning qonunchilik moliyaviyati va boshqa sohalarda yetkilarini kengaytirishga yordam berildi.

7) 2023-yil: Umuman olganda, 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘لامи kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko‘ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Quyida eng muhim o‘nta yo‘nalishda ro‘y bergan o‘zgarishlar hujjatdagi ketma-ketlik bo‘yicha keltirildi.

1. O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsianing 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlesi quyidagicha o‘zgartirilmoxda: O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi.

Yangi konstitutsianing 154-moddasi bilan, 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emas, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o‘zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

2. Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi. 15-moddaga quyidagicha qo‘srimcha qo‘sildi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

3. Imtiyozlar qonunda yozib qo‘yilishi shart emas. Yangi konstitutsianing 19-moddasi (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat’i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgarmoqda:

Eski: Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Yangi: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

4. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga. Konstitutsianing yangi tahririga asosan: Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin. Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi. Konstitutsianing yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o‘zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, yangi norma qo‘shildi:

6. O‘qituvchilar alohida e’tirofda. Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki banddan iborat: O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

7. Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda 2022 yildan e’tiboran qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o‘tgan yili e’lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi.

8. OAV faoliyatiga to‘sinqilik qilish javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to‘sinqilik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi.

9. Davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo‘ldi.

10. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o‘zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi.

Yuqoridagilardan tashqari, konstitutsiyaga boshqa ko‘plab normalar ham qo‘shilgan, jumladan: O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqilanadi. Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

XULOSA

Har kim o‘z shaxsiga doir noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Davlat internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Pezident Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya islohoti haqida 2021-yil 6-noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o‘tgan edi. Davlat rahbari o‘sha yili dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo‘llagan tabrigida: “konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o‘ylash” zarurligini ta’kidlagan edi. 2022 yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlandi. Konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 1992-yil 8-dekabr sanasi e’tirof etiladi, 8 dekabr – bayram sanasi o‘zgarmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shonazarovna M. V. KONSTITUTSIYA BAXTIMIZ QOMUSI //Евразийский журнал. Volume 1 Issue 9, December 2021. -P.79.
2. Konstitutsiyamizning yaratilishi tarixi. https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya-mizning_yaratilishi (15.07.2024)
3. Nosirov R. A., Temirova S. V. Mustaqil o‘zbekiston konstitutsiyasining qabul qilinishining tarixi //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. TSTU Conference 2. – C. 177.
4. <https://qashqadaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=40220> (15.07.2024)
5. <https://yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F-05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>
6. Karimov, N. (2022). Importance of studying and promoting oriental culture and heritage. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
7. Bobojanova D. and et. (2024). Traditions and History of Librarianship in Central Asia. Indian Journal of Information Sources and Services, 14(2), 70–77.
8. Khaydarova S. and et. (2024). The Vital Role of Libraries in Enriching Tourism Experiences. Indian Journal of Information Sources and Services, 14(2), 11–16. <https://doi.org/10.51983/ijiss-2024.14.2.02>
9. Мамадаюрова, Б. (2022). O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasining yaratilish tarixi va ahamiyati. *Общество и инновации*, 3(11/S), 283-287.